



UDK: 94(575+55)

**SHARQ RENESSANSI VA UNING MARKAZIY OSIYO HAMDA ERON
SIVILIZATSIYASIDAGI O'RNI**

**ВОСТОЧНЫЙ РЕНЕССАНС И ЕГО РОЛЬ В ЦИВИЛИЗАЦИИ
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И ИРАНА
THE EASTERN RENAISSANCE AND ITS ROLE IN THE CIVILIZATION
OF CENTRAL ASIA AND IRAN**

Qoratoyev Torabek Anvarjon o'g'li

*Andijon pedagogika instituti, "Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat
asoslari)" yo'nalishi talabasi*

E-mail: qoratoyevtorabek1@gmail.com

Tel.: +998 99 875 08 68

Annotatsiya. Maqolada Sharq Renessansi davrining Markaziy Osiyo va Eron hududlarida yuzaga kelishi, uning ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy tafakkur taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Amir Temur va temuriylar davrida siyosiy barqarorlik, ilmiy muhit va madaniy rivojlanish jarayonlari hamda bu davrda yetishib chiqqan allomalar faoliyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida Sharq Uyg'onish davrining jahon sivilizatsiyasi rivojidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *Sharq Renessansi, Uyg'onish davri, Markaziy Osiyo, Eron, Amir Temur, temuriylar davri, ilm-fan, madaniyat, tasavvuf, sivilizatsiya.*

Kirish. Renessans yoki Uyg'onish davri jahon sivilizatsiyasi tarixida ilm-fan, madaniyat va tafakkur taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Dastlab bu atama Yevropadagi XIV–XVI asrlardagi madaniy yuksalishga nisbatan qo'llangan bo'lsa-da, tadqiqotlar Sharq mamlakatlarida, xususan Markaziy Osiyo hududida IX–XII asrlarda ham yirik madaniy va ilmiy uyg'onish jarayoni yuz berganligini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo hududida qadimdan turli qabilalar yashab kelgan bo'lib, ularning aksariyati chorvachilik va baliqchilik bilan shug'ullangan hamda Amudaryo va Sirdaryo havzalarida joylashgan [10, B. 84]. Tarixiy matnlar ko'pincha faqat voqealarni qayd etuvchi neytral manba sifatida talqin qilinadi, biroq zamonaviy tadqiqotlar tarixiy matnlarda hokimiyat, bilim va diskurs o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ham ko'rsatadi [12, B. 76]. Tarixiy manbalarni o'rganishda qadimgi tarixshunoslarning asarlari alohida ahamiyatga ega. Qadimgi Xitoy tarixchisi Sima



Qian tarixshunoslik tarixida muhim o‘rin tutib, uning “Shiji” (“Tarixiy yozuvlar”) asari qadimgi davr tarixini o‘rganishda muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi [11, B. 31]. Ushbu asarda nafaqat Xitoy tarixi, balki unga qo‘shni hududlar, jumladan Markaziy Osiyo xalqlari va ko‘chmanchi qabilalar haqida ham ma’lumotlar uchraydi.

Asosiy qism. Renessans (Uyg‘onish davri) — Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy (IX–XII va XV asrlar) hamda G‘arbiy Yevropada yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davridir. “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma’naviy yuksalish (XIV–XVI asrlar)ga nisbatan qo‘llangan bo‘lib, uni o‘rta asrlar turg‘unligidan yangi davrga o‘tish bosqichi sifatida baholaganlar [1, B. 350].

Renessansning asosiy alomatlari quyidagilardan iborat: tafakkurda va ilm-u ijodda dogmatizm, jaholat hamda mutaassiblikni yengib o‘tib, insonni ulug‘lash (gumanizm), uning iste’dodi va aqliy-fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; antik davr (yunon-rum) madaniyatiga qaytib, uni tiklash va boyitish; adabiyot hamda san’atda dunyoviy go‘zallik va hayot taronalarini qizg‘in kuylash; inson erki va hurfiylik uchun kurashish [2, B. 152–153]. Buning natijasida ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyon etadigan ulug‘vor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratildi, ilm-fan rivojlandi.

Renessans, ya’ni Uyg‘onish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit holda o‘rgangan olimlarning ishlari shuni ko‘rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (IX–XII asrlar) ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergan. Bu davrda ilm-fan, falsafa va adabiyot kuchli rivojlanib, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari jamiyat tafakkurini egallagan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan [3, B. 18].

Mazkur davr dunyo ilmida “Musulmon Renessansi” (A. Mets) yoki “Sharq Uyg‘onishi” (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinadi. Sharq Uyg‘onish davrida Yevropa Uyg‘onish davrining asosiy belgilariga xos jarayonlar mujassam edi: jo‘shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilishi hamda aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilishi shundan dalolat beradi.

Sharq Uyg‘onish davri ham ulug‘ allomalar, qomusiy bilim sohiblari va mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad al-Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug‘bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar [4, B. 284]. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G‘azzoliy, Aziziddin Nasafiy kabi mutafakkirlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi. Ular olam, odam va jamiyatni yaxlit holda tadqiq etib, yangi qonuniyatlarni ochdilar, aqliy bilim ufqlarini kengaytirdilar hamda fozil jamiyat va komil inson nazariyasini chuqur ishlab chiqdilar.



Eron va Markaziy Osiyo xalqlari bir necha ming yillik sivilizatsiya tarixiga ega. Zotan, davlatchiligi bo'lmagan xalqda Uyg'onish davri ham bo'lmaydi [5, B. 74]. Markaziy Osiyoda IX–XIII asrlarda o'z xalqining qadimiy merosiga qaytish, Avesto falsafasini Qur'on ma'rifati bilan uyg'unlashtirib qayta tiklashga intilish tasavvuf ta'limoti hamda "ishroq" falsafasida namoyon bo'lgan.

Shu asosda turli nazariyalar va ta'limotlar yuzaga kelib, fikriy xilma-xillik rivojlandi. Tasavvufiy orifona ta'limotning qaror topishi, tariqatlarning shakllanishi ham aslida hurfikrlik va inson kamolotiga bo'lgan ishonchning ifodasi edi. Uyg'onish davri vakillari dinga emas, balki dinni sxolastika va jaholat manbaiga aylantirgan kishilarga qarshi kurashganlar.

O'rta Osiyo va Eron qadimgi ma'rifat hamda madaniyat o'choqlaridan biri bo'lib, butun tarixiy rivojlanish mobaynida bu ikki hudud o'rtasida mustahkam iqtisodiy va madaniy aloqalar mavjud bo'lib kelgan. XIII–XIV asrlardagi mo'g'ullar istilosi O'rta Osiyo va Eronning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayotiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mo'g'ul xonlarining bosqinchilik urushlari oqibatida shahar va qishloqlar vayronaga aylandi. Bu urushlar bevosita madaniy hayotga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi hamda aholining turmush darajasining yomonlashuviga olib keldi. Keyinchalik O'rta Osiyo va Eronning mo'g'ullar istilosidan ozod bo'lishi, markazlashgan kuchli davlatning tashkil topishi hamda urushlarga chek qo'yilishi natijasida iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotda yana yuksalish jarayoni yuz bera boshladi. XIII asr boshida mo'g'ullar hujumi natijasida o'ta tushkun ahvolda qolgan madaniy hayot XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib asta-sekin jonlana boshladi.

Uzoq vaqt davomida mo'g'ul mustamlakachiligiga qarshi olib borilgan kurash XIV asrning ikkinchi yarmiga kelib sohibqiron Amir Temur boshchiligidagi mustaqillik uchun kurashlarning g'alabasi va Movarounnahrda yagona davlat barpo etilishi bilan yakunlandi [6, B. 125].

Mamlakatda osoyishtalik o'rnatilishi, siyosiy-iqtisodiy hayotning tartibga tushib borishi madaniy hayotda ham ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Amir Temur buyuk sarkarda va davlat arbobi bo'lishi bilan birga madaniy-ma'naviy rivojlanish ishlariga ham rahnamolik qildi. Movarounnahrda turli madaniy va diniy muassasalar qurdirish, ilmiy va ma'rifiy tadbirlar o'tkazishga e'tiborni kuchaytirdi. Samarqand bu davrda Temur davlatining markazi sifatidagina emas, balki Sharq va G'arbdagi madaniy jihatdan eng rivoj topgan olim-fuzalolari, madrasalari, bozorlari, bog'u rog'lari bilan turli o'lkalar vakillarini o'ziga jalb etuvchi muhim ma'naviy markazga aylandi.

Islom dini bu davrda Amir Temur va temuriylar siyosatida mamlakatdagi ma'naviy birlikni mustahkamlash, madaniy yuksalishni ta'minlash hamda adolatni o'rnatish va



saqlash ishiga xizmat qildi [7, B. 889]. Islom dini asosida shakllangan tasavvuf ta'limoti, ayniqsa naqshbandiya tariqati bu davr ma'naviyatining g'oyaviy asoslaridan biri bo'ldi. Naqshbandiya ta'limoti islomiy qadriyatlarga tayangan holda insonning axloqiy poklikka, mehnatsevarlikka, ilm egallashga va kamolotga intilishiga yo'l ochuvchi g'oyalarni targ'ib qildi hamda ma'naviy-ijtimoiy hayotda muhim ijobiy ahamiyat kasb etdi. Bahouddin Naqshband, Ya'qub Charkhiy, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror kabi naqshbandiya namoyandalari shu davrda yashab ijod etdilar.

XIV asrning ikkinchi yarmi — XV asrda Amir Temur va temuriylar, xususan Shohruh, Ulug'bek va Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Movarounnahr va Xuroson hududlarida ilm-fan, adabiyot va san'at tez sur'atlar bilan rivojlandi [8, B. 25]. Samarqandda rasadxona qurilib, Ulug'bek ilmiy maktabi shakllandi va aniq fanlar taraqqiyotida katta yutuqlarga erishildi. Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlarning ilmiy asarlari butun musulmon olamida mashhur bo'ldi. Gumanitar va ijtimoiy fanlar, shuningdek rassomlik hamda xattotlik san'ati ham yuqori darajaga ko'tarildi. Jomiy, Kamoliddin Behzod, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamir kabi mashhur adib, rassom va tarixchilarning nomlari boshqa mamlakatlarda ham keng tarqaldi. Fors tili o'z mavqeini saqlab qolgan holda, adabiyotda turkiy tilning roli ham sezilarli darajada kuchaydi. Bu davrda turkiy tildagi she'riyat sultoni Alisher Navoiy ijod qilib, o'zining dostonlari, ilmiy va tarixiy asarlari bilan madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi.

Eronda XV asrda madaniyat va ilm-fanning rivojlanishi uchun muayyan obyektiv shart-sharoitlar mavjud edi. Bunga sabab, eng avvalo, feodal tarqoqlikka chek qo'yilishi, kuchli markazlashgan davlatning paydo bo'lishi hamda iqtisod va ishlab chiqarish kuchlarining oldingi davrlarga nisbatan rivojlanishidir. Bundan tashqari, Eronning qulay geografik sharoiti, unda serhosil va unumdor yerlarning ko'pligi, ichki va tashqi savdoning rivojlanishi, shaharlarning o'sishi, hunarmandchilikning rivoj topishi kabi omillar ham madaniyat va ilm-fanning taraqqiy etishida muhim rol o'ynadi.

XV asrda Sherozda yirik faylasuflar Jaloliddin Davoniy, Sadriddin Sheroziy va G'iyosiddin Mansur yetishib chiqdi. Sadriddin Sheroziy (1442–1496) qurdirgan "Mansuriya" nomli madrasaga ta'lim olish uchun nafaqat talabalar, balki olimlar ham qatnashar edilar. Sadriddin Sheroziyning o'zi ham falsafa sohasida ijod qilib, "Isbot ul-vojib" ("Zaruriyatning isboti"), "Risola-yi tahqiq ulum" ("Fanlarni o'rganish haqida risola") va shunga o'xshash asarlarni yaratgan. Sherozda va Eronning boshqa shaharlarida ham bu davrda yuqoridagi olimlardan tashqari Ahli Sheroziy, Mavlono Sharafiddin, Shoh Doiy Sheroziy, Mag'ribi Tabriziy, Shoh Ne'matullo Vali,



G'iyosiddin Ali Isfahoniy kabi mutafakkirlar yashab ijod qilganlar[9, B. 13].

Xulosa. Sharq Uyg'onish davri Markaziy Osiyo va Eron hududlarida ilm-fan, falsafa, adabiyot va san'atning yuksalishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda buyuk allomalar va mutafakkirlar yetishib chiqib, jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo'shdilar. Amir Temur va temuriylar davrida siyosiy barqarorlik, ilm-fan va madaniyatga berilgan e'tibor natijasida Movarounnahr hamda Xuroson hududlari ilmiy va madaniy markazlarga aylandi. Natijada ilmiy tafakkur, adabiyot va san'at yangi bosqichga ko'tarilib, Sharq Uyg'onish davri jahon madaniyati tarixida muhim o'rin egalladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Toshpulatov N., Hafizov A., Ibragimov A. IX–XII asrlarda mamlakatimiz hududida ro'y bergan madaniy uyg'onish // Journal of Marketing, Business and Management. – 2024. – 3-jild, 7-son. – B. 349–351
2. Parmonov S. E. In teaching pedagogical sciences ways of using the pedagogical approaches of allomals in the I-Renaissance period // Academics Globe: Inderscience Research. – 2022. – Vol. 3, Issue 5. – B. 152–160.
3. Ergashev U. Sharq renessansi: Markaziy Osiyo madaniyati va Yevropa uyg'onishiga ta'siri // Research and Implementation. – 2025. – Maxsus son 3(6). – B. 17–19.
4. Yuldoshovch J. R., Boboqulova M. N. Sharq uyg'onish davri dorishunosligini tadqiq etishda Abu Bakr ar-Roziy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning ilmiy merosidan foydalanish // Science and Education. – 2026. – 7-jild, 2-son. – B. 283–288.
5. Qoraboyev U. O'zbekiston madaniyati / U. Qoraboyev, G'. Soatov; mas'ul muharrir A. Sa'dullayev; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Tafakkur bo'stoni, 2011. – 196 B.
6. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) / tuzuvchi va mas'ul muharrir M. M. Xayrullayev. – To'ldirilgan qayta nashr. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. – 408 B.
7. Бердалиев Н. III. Амир Темур фаолиятида диний қадриятлар // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – 3-жилд, 4-сон. – B. 887–892. – DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-887-892.
8. Jo'rayeva M. A. Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati (XIV asrning ikkinchi yarmi – XV asr) // Oriental Art and Culture: Scientific Methodical Journal. – 2025. – 6-jild, 4-son. – B. 25–27.
9. Boltayeva Sh. H. IX–XV asrlarda ijtimoiy pedagogik g'oyalarning rivojlanishi: magistrlik dissertatsiyasi. – Samarqand: Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti, 2012. – 90 B.



10. Khudoyorov N. M., Ruziboev S. S. Traditions of the Sak-Massaget Tribes // American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2024. – Vol. 26. – B. 84–89.
11. Khudoyorov N. M., Ruziboev S. S. Sima Qian's Shiji work: historical truth or ideological construction? // Journal of Modern Educational Achievements. – 2025. – 3-jild. – B. 31–44.
12. Ruziboev S., Khudoyorov N. Reconstructing Silent Voices in Ancient Historiography: Re-reading the Shiji through an Inclusive Artificial Intelligence Lens // AI & Antiquity: Journal of Teaching and Technology in Ancient Studies. – 2026. – Vol. 2, Issue 1. – B. 76–87.